

## SOLIQ SOHASIDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIK

**Sultonov Sirojiddin Muqum o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi bank–moliya akademiyasi

1–kurs magistranti

[sultonov0795@gmail.com](mailto:sultonov0795@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo‘mitasi)ning xorijiy davlatlar bilan soliqqa tortish sohasida xalqaro hamkorlik tizimini rivojlantirish borasidagi izchil siyosatning mohiyati hamda rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** xalqaro hamkorlik, soliq, foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i, xalqaro valyuta, halol raqobat, tadbirkorlik subyektlari.

## **COOPERATION WITH FOREIGN COUNTRIES IN THE FIELD OF TAXATION**

### **ABSTRACT**

*This article analyzed the essence of the consistent policy and development dynamics of the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan (currently the tax committee under the Ministry of Economy and Finance) on the development of the international cooperation system in the field of taxation with foreign countries.*

**Key words:** international cooperation, tax, profit tax, personal income tax, property tax, international currency, fair competition, business entities.

## **СОТРУДНИЧЕСТВО С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ В ОБЛАСТИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализирована сущность последовательной политики и динамика развития Государственного налогового комитета Республики Узбекистан (в настоящее время налоговый комитет при Министерстве экономики и финансов) по развитию системы международного сотрудничества в сфере налогообложения с иностранными странами.*

**Ключевые слова:** международное сотрудничество, налог, налог на прибыль, налог на доходы физических лиц, налог на имущество, международная валюта, добросовестная конкуренция, хозяйствующие субъекты.

## METODLAR

Maqolada tarixiy hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar izlashda O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi va maqolalardan foydalanildi.

## KIRISH

Mamlakatimiz mustaqilikka erishganidan so'ng xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida dunyoning turli mamlakatlari bilan boshqa sohalarni rivojlantirgani kabi soliq sohasida ham xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha izchil siyosat olib bormoqda. Jumladan, 1993-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasi) yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan soliqqa tortish sohasida xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish ustida ish olib borayotganligi fikrimiz isbotidir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyo mamlakatlari o'rtasida ko'p sonli soliq shartnomalari tuzilishi bir qator tan olingan xalqaro standartlarning rivojlanishiga olib keldi. O'zbekiston tomonidan tuzilgan shartnomalar OECD tomonidan ishlab chiqilgan kelishuv modeliga asoslanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad va kapitalga soliq to'lashdan qochishning oldini olish to'g'risida 50 ta kelishuv mavjud. Bunday shartnomalar *Foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i* bilan bog'liq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga muvofiq yuqoridagi shartnomalar xalqaro xarakterdagi hujjat sifatida milliy qonunchilik normalaridan ustundir.

Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad va kapital soliqlarini to'lashdan bo'yin tov lashning oldini olish to'g'risidagi tuzilgan shartnomalar tizimi O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorligini, eng avvalo - o'zaro investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdoni oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda respublikamizda ushbu turga oid 14 ta shartnoma mavjud. Shu bilan bir qatorda, MDHning qator mamlakatlari, shuningdek, Latviya, Ummon va Koreya bilan hamkorlik va tajriba almashish to'g'risida ham idoralararo bitimlar tuzilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasi ushbu shartnomalarni amalga oshirishda vakolatli organ hisoblanadi. Soliq sohasida amalga oshirilayotgan xorijiy davlatlar soliq organlari bilan o'zaro yordam va hamkorlik shartnomalari mamlakatimizga quyidagi imtiyozlarni beradi:

- teng huquqli asosda, soliqni buzish holatlarini aniqlashda va oldini olishda soliq nazorati sohasida shartnoma tuzayotgan davlatlarning mavjud imkoniyatlardan foydalanish;

- soliq ma'muriyat chiligi sohasidagi xorijiy davlatlar soliq organlarining ijobiy tajribasini o'rganish va undan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati xodimlarining kasbiy o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish.

Shu jumladan, bugungi kunda ushbu turdag'i 4 shartnoma MDHning qator davlatlari bilan amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu shartnomalarda eksport-import operatsiyalariga, tovarlar va xizmatlarning o'zaro yetkazib berilishiga qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini to'lash tartibini tartibga soladi, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, halol raqobat va tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutgan.

Soliqqa tortish yo'nalishidagi xalqaro tajribani o'rganish maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlarining bilim va malakalarini oshirish maqsadida BAA, Belarus, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Koreya, Ozarbayjon, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Chexiya, Shveytsariya, Qиргизистон, Qozog'iston kabi davlatlarda bo'lib, o'zaro tajriba almashishdi. Ushbu tashriflar doirasida 103 nafar davlat soliq xizmati xodimlari xalqaro va xorijiy hamkor tashkilotlarning grand hamda texnik ko'mak mablag'lari hisobidan professional o'qish va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi.

2021-yilning o'tgan davrida Davlat soliq qo'mitasida 61 ta uchrashuv va seminarlar o'tkazildi. Jumladan:

4 ta missiya va 9 ta uchrashuv – Xalqaro valyuta jamg'armasi vakillari ishtirokida bo'lib, ushbu uchrashuvlarda quyidagi masalalar ko'rildi:

- *foyda solig'i*
- *jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i*
- *QQS uzilishi va risklarni tahlil qilish tizimlarini takomillashtirish maqsadida.*

Jahon banki vakillari ishtirokida "Soliq ma'murchilagini isloh qilish loyihasi" yo'nalishida esa 2 ta missiya va 10 ta uchrashuv o'tkazilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadida tashkil etilgan 36 ta uchrashuv va seminarlarda – *Koreya Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, KOICA, UNDP, JICA* kabi xalqaro tashkilot ekspertlari ham ishtirok etishdi.

Bugunga kelib Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasi umumiylar 60 ga yaqin mamlakat bilan ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish hamda daromad soliqlarini to'lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to'g'risidagi

bitimlar doirasida faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur bitimlar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan O‘zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslarining ikki marotaba soliqqa tortilishining oldini olish mexanizmini yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston soliq maqsadlarida ma’lumot almashish va shaffoflik bo‘yicha Global forumning 164-a’zosi hisoblanadi. Bu soliq maqsadlarida global ma’lumot almashishning xalqaro standartlarini joriy qilish, O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini yaxshilash hamda uning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlarning soliq xizmatlari rahbarlarining muvofiqlashtiruvchi kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga ham qo‘shilgan. Mazkur Qaror MDH davlatlarining soliq organlari bilan munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi va MDH doirasidagi ko‘p tomonlama xalqaro hamkorlik uchun asos bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan xalqaro shartnomalarning amalgaloshirilishi O‘zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi, xalqaro bozorda mamlakatimizning iqtisodiy subyektlari manfaatlarini himoya qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 01.01.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida Prezident Farmoni. 29.06.2018. <https://xs.uz/uz/post/>
3. Xorijiy davlatlar soliq tizimi. <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-7179.doc>
4. Soliq ma’muriyatichilagini tashkil etishning ilg‘or xorij tajribasidan mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirishda foydalanish istiqbollari.<https://cyberleninka.ru/article/n/>
5. <https://lex.uz/docs/-4674902>
6. <https://soliq.uz/page/>